

## EVIDENSIALLIK KATEGORIYASINING PRAGMATIK IFODASI

*Xamraeva Maxzuna Gayratovna*

*Turon universiteti, v.b.dots.*

*e-mail: [makhzuna.khamraeva@gmail.com](mailto:makhzuna.khamraeva@gmail.com)*

**Abstract.** *The following article provides information about the difference between the category of evidentiality and other linguistic categories, as well as the evidential analysis and evidential pragmatic analysis. The author of the article highlights the thoughts of linguists about evidentiality and pragmatic analysis. Evidential pragmatic analysis is given in the context of two languages, English and Uzbek, within the framework of examples taken from fiction books.*

**Key words:** *evidentiality, directive, expressive, commissive, informative, quotative, representative, summative, speech acts, illocutive, perlocutive, locative.*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada evidensiallik kategoriyasining boshqa lingvistik kategoriyalardan farqli tomoni hamda evidensial tahlil va evidensial pragmatik tahlil kabilar haqida soʻz boradi. Maqola muallifi tilshunos olimlarning evidensiallik va pragmatik tahlil haqidagi fikr-mulohazalarini keltirgan. Evidensial pragmatik tahlil badiiy adabiyotdan olingan misollar doirasida ikki til boʻlmish ingliz va oʻzbek tillari kesimida berilgan.*

**Kalit soʻzlar:** *evidensiallik, direktiv, ekpressiv, kommisiv, informativ, kvotativ, reprezentativ, xulosaviy, nutqiy aktlar, illokutiv, perllokutiv, lokutiv.*

**Kirish.** *Maʼlumki, evidensiallik lingvistik kategoriya boʻlib, undagi bosh maʼno maʼlumot oʻchogʻi sanaladi. Bu esa, har qanday turdagi maʼlumotning, u rost yoki yolgʻon boʻlishidan qatʼiy nazar, qabul qilinganini bildiradi. Evidensiallikda morfemalar maʼlumotdagi chuqur yoki tagmaʼnoga qaratilgan boʻlib, u belgilanmagan yoxud bajarilmagan ish-harakat borasidagi maʼlumotni ham anglatishi mumkin<sup>1</sup>. Pragmatika esa uning tag maʼnosiga borib taqaladi. A.Ayhenvald evidensiallikni maʼno va mazmuniga koʻra 1) *guvohiy (bevosita soʻzlovchining oʻzi ishtirok etgan); 2) mish-mish (boshqalardan eshitgan isbotlangan/isbotlanmagan xabar); 3) koʻrish (soʻzlovchi bevosita oʻz koʻzi bilan koʻrgan maʼlumot); 4) tarixiy (boshqalardan yillar davomida aytilib kelingan xabarlar); 5) xulosaviy (maʼlum jism, obyekt va boshqa hodisalarga koʻra soʻzlovchining tahmin va mulohazasi); 6) kvotativ (koʻchirma gap evidensialligi) kabi turlarga boʻladi.**

<sup>1</sup> Aikhenvald A. Evidentiality (Linguistiss) - Oxford university press: 2004. – P 3.

Tilshunoslikda illokutiv nutqiy akt tushunchasi aynan pragmatikaning keng tarqalgan bo'limlaridan biri bo'lib, kommunikativ maqsadni ifoda etishda qo'llanadigan lisoniy vositalarni o'z ichiga oladi. Mazkur birliklar so'zlovchining kommunikativ maqsadini hamda vazifasini tavsiflovchi harakat sifatida baholanadi.


Aksariyat manbalarda illokutiv nutqiy akt tushunchasi beshta guruhga ajratilgan: 1) aniqliklar; 2) to'g'ridan-to'g'ri; 3) vositachiliklar; 4) ifodalar; 5) rasmiy narsalar.

Har qanday axborotning pragmatik mazmuni so'zlovchi yohud ma'lumot yetkazuvchining ifoda mazmuni axborot maqsadini ochib berishdan iborat bo'ladi. Yetkazilayotgan axborot yoki ma'lumot uning ishonchliligiga borib taqaladi. Ma'lumotning ishonchli bo'lishi so'zlovchi subyektning berayotgan ma'lumotiga nisbatan guvohlilik darajasiga bog'liq bo'ladi. Guvohlilik lingvistik jihatdan sezgi ifoda vositalarning qo'llanishiga bog'liq. Shuningdek, ma'lumotni muloqot vaziyatiga nisbatan yolg'onligi ham evidentsiallik darajasini oshirish uchun xizmat qiladi. Misol uchun, inferensial ya'ni xulosaviy evidentsiallik subyektning ma'lum obyekt haqida tahminiy mulohazalarini ongda paydo bo'lishi sanaladi. **Lokutiv nutqiy aktga** misol tariqasida so'zlovchi menga qarab *Shoot her! (Uni otib tashla!)* ni keltirsak **illokutiv nutqiy akt**da majburlash, undash yoki buyurish ma'nolari mavjud bo'ladi. **Perlokutiv akt**da esa *I was persuaded to or made to shoot her (uni otishga meni majburlashdi)* konteksti yuzaga keladi<sup>2</sup>.

Nutqiy akt nazariyasiga professor L.Hickey quyidagicha ta'rif bergan: "Nutqiy akt so'zlashuv jarayonida asosiy vazifani bajarish uchun xizmat qiluvchi rasmiy so'zdir"<sup>3</sup>.

Nutqiy aktlarni kundalik hayotimizda har kuni amalga oshiramiz. Masalan, har kuni bir-birimiz bilan salomlashamiz, hayrlashamiz, uzr so'raymiz, shikoyat qilamiz, talab qilamiz va buyruq beramiz. Ta'kidlash joizki, nutqiy aktlarni namoyon etishda tilning kelib chiqishi va madaniyati muhim o'rin tutadi.

D.Arker hamda P.Grundi nutqiy aktlarni 3 guruhga ajratdilar: 1) lokutiv 2) illokutiv 3) perlokutiv. Bunda nutqiy aktni bir kontekstda 3 xil usul bilan tahlil qilish mumkin. Chunonchi,



<sup>2</sup> Austin E.O. The speech act theory and the speech situation, Cambridge edition 1962. – P101.

<sup>3</sup> Hickey L. Stylistics, pragmatics and pragmatics. – Oxford Research Encyclopedia in Linguistics: 1993. – P 573-586.

*The door is open. Close the door. It could be too noisy therefore I have to close the door.*<sup>4</sup>

O'zbek tilida esa, *Deraza ochiq (lokutiv) Derazani ochib yubor! (illokutiv) Ichkari isib ketti, derazani ochilsa yaxshi bo'lardi (perlokutiv)* kabilarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

A.Vejbiskaya pragmatik tahlilni quyidagicha misollar orqali amalga oshirgan: "Take some more dear-little-herring! You must! kontekstining o'rniga Would you like some more herring? Are you sure?"

- *Try some more herrings (lokutiv)*

- *That you should try more herring (illokutiv)*

*That you need to try this herring in order to be "polite" (perlokutiv).*<sup>5</sup>

Nutqiy aktlar o'z navbatida, stilopragmatik, metaforik, ekspressiv, monologik akt ko'rinishi kabi tahlillarni o'z ichiga oladi. Jumladan, M.Hakimov ekspressiv tagma'noni quyidagicha izohlagan: "Ekspressiv tagma'noda so'zlovchi nazarda tutgan niyatga uning his tuyg'ulari ham qo'shiladi. So'zlovchi propozisional aktini sodir etarkan, maqtanish ottenkalari aks ettirilgan yashirin ma'no kelib chiqadi"<sup>6</sup>. Mazkur fikrga olim quyidagi misolni keltiradi: "*Hammasi ham unib o'sdi: biri kolxoz raisi, biri rayon madaniyat bo'limining boshlig'i, biri deputat... Ha aytganday qaysi kuni Hakima kelgan edi, qahramon bo'lishiga o'ttiz bir tonna etmabdi*". (Baribir hammasidan o'zim dono degan g'urur aks etib turardi) keltiradi. Ammo ekspressivlik har doim ham so'zlovchi tomonidan maqtash belgilarida yuzaga kelavermaydi. Bunda evidensial ma'lumotning real voqelik va vaziyatga aloqadorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan,

- "*O'g'ir o'lgur ag'darilib ketdi,*" - *dedi onam aybdor ohangda.*

- "*Nima?*" - *dedi dadam lavlagi bo'lagini qo'lida tutgan Cha jahl bilan onamga qaradi.*

- "*To'kilib ketdi*" - *dedi onam boshini quyi solib. (O'.Hoshimov;98)*

Keltirilgan ushbu misoldagi *to'kilib ketdi* birikmasi evidensial voqelik ma'lumoti vaziyatni tarang qilish orqali emosional ekspressivlikni yuzaga I.Arnoldning ta'kidlashicha, pragmatik ifodaning umumiyashirin ma'nolari implikasiya, tagma'no, alluziya, presuppozisiya, propozisiya kabi murakkab mazmun shakllaridan iborat bo'ladi<sup>7</sup>.

<sup>4</sup> [www.britannica.com](http://www.britannica.com)

<sup>5</sup> Jarasch J., Jamai K. Kumush, Speesh ast theory. – Language and sosiety publisation: 2014. – P 43.

<sup>6</sup> Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini. Filologiya fanlari doktorlik dissertatsiyasi. – Toshkent: 2011. – 101 b.

<sup>7</sup> Arnold I.V. Stilistika sovremennogo angliyskogo yazqka. M., 1990. –S 103.

Ingliz tilshunosi G.Yule illokutiv nutq taksonomiyasini yaratib, ularni quyidagi besh kichik guruhlariga ajratish orqali tadqiq qilish taklifini bildiradi<sup>8</sup>. 1) *deklarativ*; 2) *reprezentativ*; 3) *ekspressiv*; 4) *direktiv*; 5) *komissiv*;

*Deklarativ nutqiy aktda* soʻzlovchi tinglovchiga yoʻnaltirilgan maʼlumotini isbotlanganmi yoki isbotlanmaganmi ahamiyati yoʻq, oʻzi ishongan yohud ishonmagan gaplarni ham yetkazishi kuzatiladi. Mazkur maʼlumot *eʼlon qilmoq, aybdor deb topmoq, hukm qilmoq, inkor etmoq* kabi feʼl birikmalari orqali ifodalanishi mumkin. Chunonchi, *bolaligida hammaning ham tishi tushadi. Meniki gʻalati boʻlgan: birinchi tishimni urib tushurishgan. Bunga hoʻja sababchi boʻlgan.* (Oʻ.Hoshimov. *Dunyoning ishlari*; 188) Ushbu gapda aybdor deb topish maʼnosi yashiringani bois, uni deklarativ nutqiy akt hamda guvohiy evidensiallik sirasiga kiritamiz, chunki unda soʻzlovchi bevosita oʻzi ishtirok etgan voqea-hodisani boshqa shaxsga yetkazmoqda.

*“So you were probably surprised when Levy contacted you. I’m thinking that what happened, isn’t it, Jonna? He probably told you how guilty he felt, how sorry he was, some bullshit like that”* (R. Crais. *Chasing darkness*; 305).

Keltirilgan *he probably told you how guilty he felt* lavhasi xulosaviy evidensiallik bilan deklarativ nutqiy akti hosil qilgan.

*Boshidayam-ku, yulduzi yulduziga uncha toʻgʻri kelmasdi-ya, -dedi sekin. Ammo baribir chatoq boʻldi. Ikki orada bola bechora tirik yetim boʻlib qoldi* (Oʻ. Hoshimov. *Dunyoning ishlari*; 189). Mazkur lavha hukm qilmoq maʼnosiga ega boʻlganligi sababli, deklarativ nutqiy akti hamda reportative yohud informativ evidensiallikni hosil qilgan. *Reprezentativ nutqiy aktlarga* soʻzlovchining haqiqat deya ishonadigan soʻzlarini kiritishimiz mumkin. Bunday turdagi nutqqa taʼkidlash, maʼlumot berish, maqtash, notiqlik qilish va h.k. kiradi. Misol uchun, ingliz tilida *You are the best! You are my Hero! oʻzbek tilida esa Yaxshisam baxtinga sen borsan, azizam!* kabilarni keltirish mumkin boʻladi.

*Ekspressiv nutqiy aktda* soʻzlovchining fizik holatlari (uzr soʻrash, shikoyat qilish, taʼziya bildirish, qarshi chiqish, ulugʻlash, quvonch, mamnuniyat, ogʻriq, gʻamginlik, yoqtirish, yoqtirmaslik) kabilar orqali oʻz hislarini bayon etishi hisoblanadi.

Bunda soʻzlovchining hissiyotlariga koʻproq urgʻu beriladi. Ekspressivlikni evidensiallikning muhim boʻlagi sifatida talqin qilish mumkin. Masalan, *Tagʻin ham odamzod chidarkan. Ham eridan ham yakka-yolgʻiz oʻgʻlidan judo boʻlib oʻtiribdi*

<sup>8</sup> Yule G. “Pragmatics”. Oxford university press 1996, p 78.

*boyaqish. – U bir zum o‘ylanib turdi-da, qo‘shib qo‘ydi. – Bechora, Valisiga juda suyanib qolgan. Ishqilib, orzu havasini shundan ko‘rsin..... (O‘.Hoshimov. Dunyoning ishlari; 188).*

Keltirilgan jumlada ham achinish ham afsus hissi orqali so‘zlovchi boshqa bir shaxsga ta‘ziya bildirayotgani ekspressiv nutqni aktini tashkil etsa, evidentsiallikning informativ qismini yaratib bermoqda.

*These two times created the thirty-six-minute window during which Bennet was murdered, and would prove key to the charges against Byrd being dropped (R. Crais. Chasing darkness; 26).*

Ushbu misolda *Bennet was murdered* so‘zlovchi ma‘lum voqea-hodisa haqida xabar berayotganligi sababli informativ evidentsiallikka ishora qilayotgan bo‘lsa, *would prove key to the charges against Byrd* qarshi chiqish ma‘nosini anglatgani bois, ekspressiv nutqiy aktini ko‘rsatib kelgan.

*Direktiv nutqiy aktlar* muloqot jarayonida turlicha usullarda uchrashi mumkin. Ular so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi suhbat jarayonida ma‘lum subyekt yoki obyekt borasida turlicha harakat (buyruq, talab, taklif, majburlash, maslahat, tavsiya, o‘tinch va aytganini qildirish) kabi birliklar orqali ifodalanishi mumkin. Direktiv nutqiy aktlar mohiyatan tinglovchiga nisbatan salbiy munosabatni tashkil qiladigan nutqiy hodisadir. Zero, ular vositasida so‘zlovchi amalga oshirgan nutqiy tuzilma propozitsional mazmunida voqelangan harakatni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, *“That’s enough”. Mrs. Bossidy froze in midstep. More restless of late, she’d suggested an evening stroll. The sun hovered over the horizon, a coral haze spreading wide, the broad flat surface of the river awash in pink and gold (S. Key. A wanted man; 26).* Mazkur gapda buyruq berish ma‘no ottenkalari mavjud bo‘lib direktiv nutqiy aktini va kvotativ evidentsiallik hosil bo‘lgan.

*Tiy tilingni, go‘dak! – Bo‘ronbek Ibodillaning yoqasidan tortib, burchakka uloqtirdi-da, sariq jez naqshli sandiq yoniga bukchayib o‘tirib qolgan boyvachcha parvo ham qilmay, oyshubunga qaradi (H. G‘ulom. Mash‘al;30).*

Keltirilgan misolda salbiy ottenka ma‘nosini ifodalovchi buyruq gap direktiv nutqiy aktini hosil qilgan bo‘lsa, keyingi gap informativ evidentsiallikni ifodalamoqda.


*Kommisiv nutqiy aktlar* so‘zlovchi rejalashtirgan yoki o‘ylagan narsalarini tasvirlash uchun xizmat qiladi. Bular odatda kelajakda bajariluvchi ba‘zi harakatlarga undovchi hodisa sanaladi. Jumladan: va‘da berish, qasam ichish, rad etish, garov bog‘lash, qo‘rqitish, inkor etish, shartlashish, ishontirish kabilar bo‘lishi mumkin. Bunda so‘zlovchining hissiyotlariga ko‘proq urg‘u beriladi. Bundan tashqari, kommisiv nutqiy aktlar ko‘proq buyruq maylidagi fe‘llarni o‘z ichiga oladi. Masalan,

*“They wouldn’t discuss the case with us, either. We gave our reports to Harriet, and Harriet did whatever she did with them. I guess she passed them up to the task force. Those task force guys wouldn’t even talk about what they were doing with the divisional dicks, and those guys pissed” (R.Crais. Chasing darkness; 92).*

Keltirilgan misolda aynan inkor ma’nosining bir necha marotaba qo’llanilganini ko’rishimiz mumkin. O’zbek tilida esa quyidagi misolni keltirishimiz mumkin bo’ladi:

*Qasam ichib aytmanki, bu ohirgi marotaba ichishim! Ogohlantirib qo’yay, yana biror marta shu atrofda yurganingni ko’rsam, mendan o’pkalama!*

Evidentsiallik kategoriyasi illokutiv nutqiy aktning assertiv guruhi bilan o’xshash vazifalarni bajara oladi deya aytishimiz mumkin. Zero, assertiv illokutsiya va evidentsiallik bir-biriga monand funktsiyalarni bajarganligi tufayli ularni bir-biridan ajratib olish biroz mushkullik tug’diradi. Ta’kidlash joizki, evidentsiallik ham, assertiv illokutsiya ham ta’kidlash, ma’lumot berish, oldindan tahmin qilish, hisobot berish kabilar vazifalarni o’z ichiga oladi. Biroq, assertiv illokutsiya ishontirish, taklif qilish, so’z berish, qasam ichish, ulug’lash, tan olish, tavba qilish, ayblash va qoralash kabi harakatlarni ham ko’rsatib berishi mumkin, ammo evidentsiallikda bunday harakatlar mavjud emas. Har qanday deskriptiv ma’no semantikaga, kontekstual ma’no esa pragmatikaga borib taqaladi.



Har qanday ma’lumotni nutq vaziyatiga aloqadorligi va ushbu vaziyatda so’zlovchi tomonidan voqea-hodisani ko’rish, eshitish va his qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Pragmatik jihatdan ko’rish va eshitish orqali voqea-hodisaga nisbatan munosabat va mulohaza paydo bo’ladi. Bunda evidentsiallikning inferentsial munosabatlari yuzaga kelishi mumkin. Masalan, *Tashqarida hamon terak barglari shitirlaydi. Qaerdadir yaqin joyda daryo shovillaydi. Bir mahal qulog’imga dilni*

*og'rituvchi mungli tovush chalindi: "Haq-qu, haq-qu..." Bir zum sukunat tushdi-da, ancha olisdan yana o'sha tovush takrorlandi (O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. 9).*

Keltirilgan misoldagi "tashqarida hamon terak barglari shitirlaydi. Qaerdadir yaqin joyda daryo shovillaydi" ma'lumoti bevosita eshitish sezgi organlari orqali amalga oshirilgan bo'lib, mazkur ma'lumotlar inferentsial evidentsiallik sanaladi. Ushbu evidentsial mulohaza "terak barglari shitirlaydi" kontekstiga nisbatan assertiv illokutsiyani hosil qilgan.

Tilshunoslar so'zlovchi so'zlarining kontekstdagi ma'nolarini tushunishda nutqiy aktlarning roli muhimligi borasida ko'p marotaba takrorlaganlar. Fikrimizning dalili sifatida ingliz tilidagi misolga e'tibor qaratamiz:

*Now in his mind he saw a railway station and he was standing with his pack and that was the headlight of the Simplon-Orient cutting the dark now and he was leaving Thrace then after the retreat. That was one of the things he had saved to write, with, in the morning at breakfast, looking out the window and seeing snow on the mountains in Bulgaria and Nansen's Secretary asking the old man if it were snow and the old man looking at it and saying, No, that's not snow (E. Hemingway, 38).*

Mazkur misoldagi *Now in his mind he saw* jumlasida aynan see fe'li bilan ifodalangan ma'lumot muallif tasavvuridagi voqelik va u ko'rib turgan reallik o'rtasidagi nomatanosiblikni yozaga keltirgan. Matndagi *looking out the window and seeing snow on the mountains in Bulgaria and Nansen's Secretary* komissiv ifoda bo'lib, so'zlovchi ongidagi tasavvurga nisbatan qarama-qarshilikni namoyon etgan. Ushbu matnda sezgi fe'llarining qator qo'llanishlarini ko'rishimiz mumkin: dastlabki matndagi saw fe'li shaxsning kognitiv faoliyati bilan bog'liq tasviriy hodisani ifodalash uchun xizmat qilgan bo'lsa, keyingi o'rindagi *looking and seeing* real voqelikni ifodalab, assertiv pragmatik vazifani bajarmoqda. Chunki, assertiv pragmatik illokutsiya tasdiqlash va ma'lumot berishni ifodalaydi.

O'zbek tilida ifoda vositalari o'ziga xos lingvo-badiiy tarkibga ega sanaladi. Jumladan, evidentsial hodisalarni ifodalovchi sezgi fe'llari qator sinonimik guruhga ega. Ammo har bir ibora yoki sezgi ma'nosini ifodalovchi birlik o'ziga xos semantik vazifani bajaradi. Sezgi fe'llari ishtirok etadigan nutqiy aktlar turli pragmatik vaziyatlarni ifodalab kelishi mumkin. Jumladan, evidentsiallik doirasida asosiy planda turadigan vizuallik bevosita ko'rish sezgi fe'llari yordamida amalga oshiriladi. Mazkur voqelanishlar muloqot jarayonidagi ma'lumotlarning xususiyatlariga qarab turlicha pragmatik mazmun kasb etadi. Misol uchun,

*"Ko'rdingizmi," deydi qariya o'ychan ohangda, o'sha kuni kechasi bilan jala quyib chiqdi. To qabrga qo'ygunimizcha tinmadi. Qo'yishimiz bilan charaqlab oftob chiqdi. Bunaqa ruhi pok odamlar kam bo'ladi, bolam, men bilaman-ku (O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari. 7).*

Mazkur misolda subyekt “ko’rdingizmi,” so’roq so’zi orqali aynan presuppozitsiani nazarda tutgan holda sezgi evidentsiali guvohi bo’ldingizmi ma’nosini ifodalab, tinglovchi e’tiborini reportativ evidentsial ifoda orqali jalb qilishga qaratgan. Lavhadagi keyingi ma’lumotlar oldingi evidentsial ma’lumotga nisbatan ekspressiv illokutsiyani namoyon etmoqda. Chunki so’zlovchining gapida maqtash va ulug’lash ma’nolari aks etgan.

*But the only thing about him that could be fixed upon as a remarkable was his stuff, which bore the likeness of a great black snake, so curiously wrought that it might almost be seen to twist and wriggle itself like a living serpent (N. Hawthorne. Young Goodman Brown, 55)*

Mazkur misoldagi *might almost be seen* fe’llari ishontirish hamda tahmin qilish kabi presuppozitiv ma’nolarni anglatgani uchun ularni aynan assertiv nutqiy aktga va inferentsial evidentsiallikka misol bo’ladi deya olishimiz mumkin.

*Kutilmagan uchrashuvdan hijolat chekkan Kamolning nafasi ichiga tushdi, zo’rma-zo’raki iljaydi-da, qizil g’ijim duxoba ko’rpachaga o’ralgan bolaning yuzini ochdi. SHu lahza Kamolning ma’iyo chehrasida otalik mehri yilt etib ketganini sezdim. (H.Nazir. Ko’kterak shabadasi. 5)*

Keltirilgan misoldagi ma’lumot inson tanasi va uning bevosita sezgisi yoki hissi bilan bog’liq bo’lgan harakat bo’lib, mazkur ma’lumot reportativ evidentsiallik ma’nosi bilan birga assertiv nutqiy aktni hosil qilgan.

*It had started the night before when he had wakened and heard the lion roaring somewhere up along the river. It was a deep sound and at the end there were sort of coughing grunts that made him seem just outside the tent, and when Francis Macomber woke in the night to hear it he was afraid. He could hear his wife breathing quietly, asleep.*

Keltirilgan kontekstda eshitish harakatining ifoddalanishi *heard the lion roaring* bevosita evidentsial hodisa sifatida assertiv illokutsiyani hosil qilgan. *He could hear his wife breathing quietly, asleep* ushbu gap ham assertiv illokutsiyani ifoda etish bilan birga nutq vaziyatiga aloqador voqelikka urg’u bermoqda.

*Akalarini izlab ostonaga emaklab kelgan kenja o’g’il og’zidagi bittagina tishini ko’rsatib Tolibjonga talpindi (S.Ahmad. Jimjitlik. 62)*

**Xulosa sifatida shuni aytish joizki**, pragmatikada aniq bo’lmagan ma’lumot ya’ni shubha, gumon, faraz kabilar, evidentsiallikda esa esa ko’pincha aniq va o’z isbotini topgan ma’lumotlar keltiriladi. Ammo, evidentsiallikda ham taxmin qilish harakati yo’q emas. Xullas, evidentsiallik va pragmatika turli xil tushunchalar bo’lishiga qaramasdan ularni bir-biri bilan bog’lab turuvchi xususiyatlar mavjud. Evidentsiallikni bevosita xulosa qilingan fakt deb olsak, pragmatikani bilvosita faraz yoki taxmin deyishimiz mumkin. Odatda evidentsiallikni grammatik vositalar orqali

pragmatikani esa leksik vositalar orqali aniqlashimiz mumkin. Ayrim hollarda evidensiallik hodisasi va pragmatik mazmun bir-birini to'ldiradi. Ba'zi evidensial hodisalar pressupozitiv, prezumptiv, propozitiv vazifalarni bajarib kelishi aniqlandi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aikhenvald A. Evidentiality (Linguistics) - Oxford university press: 2004. – P 3.
2. Austin E.O. The speech act theory and the speech situation, Cambridge edition 1962. – P101.
3. Arnold I.V. Stilistika sovremennogo angliyskogo yazqka. M., 1990. – C 103.
4. Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini. Filologiya fanlari doktorlik dissertatsiyasi. – Toshkent: 2011. – 101 b.
5. Hickey L.V. Stylistics, pragmatics and pragmastylistiss. – Oxford Research Ensyclopedia in Linguistiss: 1993. – P 573-586.
6. Jarasch J., Jamai K. Kumush, Speech act theory. – Language and society publication: 2014. – P 43.
7. Yule G. "Pragmatics". Oxford university press 1996, p 78.
8. [www.britannica.com](http://www.britannica.com)